

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.07.2022.I.16.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

ZARIPOV BAHODIR BOBOMUROD O'G'LI

**OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA BULUTLI
TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNI TADQIQ ETISH**

08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on economical sciences**

Zaripov Bahodir Bobomurod o'g'li Oliy ta'lim muassasalarida bulutli texnologiyalardan foydalanishni tadqiq etish	3
Зарипов Бвходир Бобомурод угли Исследование применения облачных технологий в высших учебных заведениях	27
Zaripov Bakhodir Bobomurod ugli Research on the application of cloud technologies in higher education institutions	53
E'lon qilingan ishlar ro'yxati Список опубликованных работ List of published works	58

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.07.2022.I.16.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

ZARIPOV BAHODIR BOBOMUROD O'G'LI

**OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA BULUTLI
TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNI TADQIQ ETISH**

08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/Iqt3147 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tsue.uz) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Abduvohidov Abdumalik Maxkamovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Mo'minov Bahodir Boltayevich
texnika fanlari doktori, professor

Odilov Shoxrux G'ayratjonovich
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Yetakchi tashkilot:

**O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi
Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.07.2022.I.16.05 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil «06» 12 soat 14'00dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72; faks: (99871) 239-43-51; e-mail: info@tsue.uz.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (153/ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72; faks: (99871) 239-43-51, info@tsue.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «22» 11 kuni tarqatildi.
(2024 yil «22» 11 dagi 12 raqamli reyestr bayonnomasi).



Sh.E. Sindarov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

J.S. Fayzullayev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
kotibi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

T.S. Qo'chqorov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot
fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda global integratsiyaning jadallashuvi sharoitida rivojlangan mamlakatlar oliy ta'lim faoliyatida raqamli texnologiyalar keng joriy etilishi natijasida oliy ta'lim muassasalari iqtisodiy o'sishni, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlovchi muhim omillaridan biri ekanligini o'z tajribalarida namoyon qilmoqdalar. Shu bois, jahondagi global rivojlanish raqamli iqtisodiyot ta'sirida oliy ta'limni o'zgartirish jarayonlari faol davom etmoqda. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, raqamli iqtisodiyotning global yalpi ichki mahsulotdagi (YaIM) ulushi 15,5 foizni tashkil etadi. So'ngi o'n yil ichida dunyo YaIMga nisbatan 2,5 barobar tezroq o'sdi. Raqamli iqtisodiyot 2025-yilga kelib jahon YaIMga qo'shgan hissasi 24 foizdan oshishi kutilmoqda.¹ Buguni kunda raqamli iqtisodiyotning rivojlangan mamlakatlar yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 5,5 foizga, rivojlanayotgan mamlakatlarda esa 4,9 foizga teng. Bu ko'rsatkich Buyuk Britaniyada – 12,4 foiz, Janubiy Koreyada – 8 foiz, Xitoyda – 10,0 foiz, Hindistonda – 5,6 foiz, Rossiyada – 2,8 foizni tashkil etadi.² Raqamli hamkorlik tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra 2030-yilga borib raqamli iqtisodiyot global YaIMga 30 foiz hissa qo'shishi va 30 million ish o'rni yaratilishi kutilmoqda.³ Oliy ta'lim mamlakatlarning rivojlanishida muhim o'rin tutganligi bois, ushbu sohani yanada jadal rivojlantirish maqsadida raqamli iqtisodiyot texnologiyalaridan samarali foydalanish va amaliyotga joriy etish dolzarb masalalardan biriga aylanmoqda.

Jahon amaliyotida oliy ta'lim sohasini rivojlantirishda raqamli iqtisodiyot texnologiyalaridan samarali foydalanish bo'yicha keng qamrovli ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu izlanishlarda asosan oliy ta'lim faoliyatini rivojlantirishda raqamli texnologiyalarni keng joriy qilish, ta'lim faoliyatini nazorat qilish, masofaviy ta'limni tashkil etish, zamonaviy darslarni va ilmiy tadqiqot faoliyatini olib borishda bulutli texnologiyalar, IoT(Internet buyumlar), sun'iy intellekt va bir qancha raqamli texnologiyalardan foydalanish va amaliyotga joriy etish bu borada amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ta'lim jarayonlarida raqamli texnologiyalardan foydalanishga katta e'tibor qaratilmoqda. "Raqamli O'zbekiston-2030" dasturi doirasida davlat boshqaruvi, iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda raqamli texnologiyalarni joriy qilish, axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish, moliyaviy texnologiyalar, xususan, bank tizimlari, onlayn to'lovlar, elektron pullar va blokcheyn texnologiyalaridan foydalanish, elektron hukumat tizimini joriy qilish orqali aholining davlat idoralari bilan bog'liq ish jarayonlarini soddalashtirish, axborot texnologiyalari sohasida yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashga yo'naltirilgan ta'lim dasturlari va maxsus IT-markazlar tashkil etish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiy tarmoqlarini rivojlantirish shular jumlasidan hisoblanadi. Mazkur vazifalarning samarali amalga

¹ https://eabr.org/upload/iblock/566/EABR_Digital_Potential_EN.pdf

² Digital economy: course in 2020. URL: <http://files.runetid.com/2019/itogi2019/presentations/14dec>.

³ <https://www.edgemiddleeast.com/business/dco-2030-digital-economy-to-contribute-30-of-global-gdp-and-create-30-million-jobs-by-2030>

oshirilishi o'z navbatida mamlakatda oliy ta'lim faoliyatini rivojlantirishda raqamli iqtisodiyot texnologiyalaridan foydalanish va takomillashtirishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqot ishlarining dolzarbligini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2020-yil 5-oktyabrdagi PF-6079-son "Raqamli O'zbekiston – 2030 strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmonlari, 2018-yil 5-avgustdagi PQ-3775-son "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohatlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida"gi qarori, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlar belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada hizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining 1. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy hamda madaniy-ma'rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakillantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida bulutli texnologiyalarga asoslangan ta'lim tizimlaridan oliy ta'lim tizimida foydalanish samaradorligi, oliy ta'lim tizimi boshqaruvida bulutli texnologiyalar xizmatlaridan foydalanish hamda universitetlarda bulutli xizmatlarni qo'llash masalalariga xorijiy olimlardan T.Gofrani, R.Dautov, Z.Abbasi, B.Stiv, D.Georgion, S.Jonathan, Z.Shana, E.Abdulibdeh, L.Tomasz, P.Bajdor, M.Odeh, G.Perez, K.Warwick va b. ishlarida o'rganilib chiqilgan. Bulutli infratuzilmalardagi xarajatlar va samaradorlikni hisobga olgan holda resurslarni boshqarish bo'yicha S. Jonathan ishlarida yoritilgan va qator ilmiy tadqiqotlar olib borishgan⁴.

Iqtisodiyotning turli sohalarida va oliy ta'lim tizimidagi iqtisodiy xarajatlarni kamaytirish borasida bulutli texnologiyalar va axborot kommunikatsiya

⁴ Ghofrani T. (2015) Instructors' Perception on The Use of Cloud-based Learning Systems in Higher Education: The Case of Tehran Technical Universities. Eastern Mediterranean University September 2015 Gazimağusa, North Cyprus. Dautov R. (2016) Exclaim framework: a monitoring and analysis framework to support self-governance in cloud application platforms. A thesis submitted to The University of Sheffield for the degree of Doctor of Philosophy. June 2016. Z.Abbasi (2014) Sustainable Cloud Computing. A Dissertation Presented in Partial Fulfillment of the Requirement for the Degree Doctor of Philosophy. Arizona state university december 2014. Georgiou D. (2017) Security Policies for Cloud Computing. A dissertation submitted for the degree of Doctor of Philosophy in Computer Science Piraeus 2017. Jonathan S. (2015) Efficient Monitoring of Large Scale Infrastructure as a Service Clouds This thesis is submitted in partial fulfilment for the degree of Doctor of Philosophy at the University of St Andrews February 2015. Shana Z, Abdulibdeh E. (2017) Cloud computing Issues for Higher Education: Theory of acceptance model. 10 September 2017.-168-184pp. <https://doi.org/10.3991/ijet.v12.i11.7473>. Tomasz L, Bajdor P. The use of Cloud Computing by Students from Technical University– the Current State and Perspectives. International Conference on Communication, Management and Information Technology ICCMIT 2015. 1075-1084pp. Odeh, M, Garcia-Perez, A, Warwick, K 2017, 'Cloud Computing Adoption at Higher Education Institutions in Developing Countries: A Qualitative Investigation of Main Enablers and Barriers' International Journal of Information and Education Technology, vol 7, no. 12, pp. 921-927. <http://dx.doi.org/10.18178/ijiet.2017.7.12.996>

texnologiyalaridan foydalanish masalalariga MDH davlatlari olimlaridan L.A.Shunina, G.G.Golovenchik, L.S.Galkina, V.P.Bespalko, V.V.Grinshkun, V.B.Klepikov, A.Yu.Kravsova, I.V.Levchenko va boshqalarning ilmiy ishlarini keltirish mumkin.⁵

O‘zbekistonlik olimlaridan V.Q.Qobulov, S.S.G‘ulomov, A.A.Musaliev, D.M.Rasulev, B.A.Begalov, A.N.Aripov, A.A.Maxmudov, I.A.Eshmamatov, T.Z.Teshabayev, A.T.Kenjabayev, A.M.Abduvohidov, A.A.Abidov, B.R. Vafoyev, M.K.Abdullayev, T.S.Kuchkarov, M.M.Maxammadiyevlar milliy iqtisodiyot va oliy ta’lim tizimida zamonaviy AKTdan foydalanishning nazariy hamda uslubiy jihatlarini o‘z ilmiy ishlarida yoritib berishgan. Ular O‘zbekiston Respublikasi milliy iqtisodiyotida raqamlashtirilgan va avtomatlashtirilgan axborot tizimlari, iqtisodiy informatika, hisoblash texnikasidan optimal foydalanish, axborot maxsulotlari va xizmatlari marketingini tashkil qilish, oliy ta’lim muassasalarida moliyaviy resurslarni boshqarish mexanizmini takomillashtirish bo‘yicha olib borilgan ishlarga o‘zlarining sezilarli ilmiy hissalarini qo‘shganlar⁶.

⁵ Шунина Л.А., Использование облачных технологий в совместной работе преподавателей вуза как основа интегрированной подготовки учителей для школ международного бакалавриата. Диссертация на соискание ученой степени кандидата педагогических наук, - М. 2020 - 180 с; Головенчик Г.Г., Цифровая экономика. Учебное электронное издание, Минск 2020 - 143 с; Галкина Л.С., Методика развития икт-компетентности будущих экономистов и менеджеров средствами облачных технологий при обучении дисциплинам информационного цикла. Диссертации на соискание ученой степени кандидата педагогических наук, Красноярск 2017-145с; В.П.Беспалько., Системно-методическое обеспечение учебно-воспитательного процесса подготовки специал. истов. Учебно-методическое пособие –М, высш школа. 1989 – 141 с; Клепиков В.Б. Готовность педагогов к формированию и реализации персональной электронной образовательной среды в условиях дополнительного профессионального образования Диссертация на соискание ученой степени кандидата педагогических наук – М., 2017. – 212 с; Кравцова А.Ю. Совершенствование системы подготовки будущих учителей в области информационных и коммуникационных технологий в условиях модернизации образования Диссертация на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. – М., 2004. – 267 с; Левченко И.В. Обучение информационным технологиям в условиях информатизации образования : учеб. пособие – Воронеж : Научная кн., 2016. – 131 с.

⁶ Қобулов В.Қ. Алгоритмизация в социально-экономических системах. – Т.: фан,1989.; Фуломов С.С., Ходиев Б.Ю., Мусалиев А.А., Бегалов Б.А. Менеджмент информационных систем. Монография. – Т.: фан 2007 – 342с.; Расулев Д.М. Иктисодий ислохотларни чуқурлаштириш босқичида инвестицияни молиялаштиришни эконометрик моделлаштириш (Банклар инвестицияси мисолида). Иктисод фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати Т.: Фан ва технологиялар, 2003 йил, 40 б.; Бегалов Б.А. Ахборот коммуникациялар бозорининг шаклланиш ва ривожланиш тенденцияларини эконометрик моделлаштириш. Иктисод фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация иши Т.: 2001 – 330б.; Арипов А.Н. Ахборот-коммуникациялар соҳасида бошқарув тизимини такомиллаштириш муаммолари. Иктисод фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. – Т.:2004; Махмудов А.А. Олий таълим муассасаларида молиявий ресурсларни бошқариш механизминини такомиллаштириш. иктисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертацияси автореферати. – Т.: 2019; Эшмаматов И.А. Замонавий ахборот технологиялари муҳитида педагогларнинг ахборот-коммуникатив компетентлигини ривожлантиришнинг назарий-педагогик асосларини шакллантириш. Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертацияси автореферати. – Т.: 2018.; Teshabayev T.Z. Oliy ta'lim tizimida innovatsion faoliyatni axborot texnologiyalari asosida boshqarishni takomillashtirish. Iqt.f.d. ...diss. avtoref. – Т.: TDIU, 2019.; Kenjabaev A.T. Tadbirkorlik faoliyatida axborotlashtirish milliy tizimini shakllantirish muammolari. Iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. -Т.: 2005. 32 б.; Abdvohidov A.M., Digital Development of Education and Universities: Global Challenges of the Digital Economy International Journal of Instruction. 2020.11.15.; Abidov A.A. Korxonalarida marketing samaradorligini oshirishda axborot tizimlaridan foydalanishni takomillashtirish metodologiyasini takomillashtirish. Iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – Т.: 2024. 75b.; Vafoyev B.R. Korxonalarda marketing samaradorligini oshirishda axborot tizimlaridan foydalanishni takomillashtirish yo‘llari. Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Т.: TDIU. 2012.; Abdullayev M.K. Korxonalarida boshqaruvida axborot tizimlaridan samarali foydalanish jarayonlarining tadqiqi. I.f.f.d. dis. avtoref. – Т.: TDIU. 2019.; Кучкаров Т.С., Совершенствование информационной системы казначейства Республики Узбекистан в условиях цифровой экономики: Автореф. дис. док. эконом. наук (DSc) Tashkent. 2019, 76 б.; Maxammadiyev M.M. Mehnat bozorini raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirish. I.f.f.d. dis avtorefer. – Т.: TDIU. 2023.;

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Iqtisodiy tarmoqlarning innovatsion rivojlanishida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ahamiyati" mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Oliy ta'lim tizimida faoliyat ko'rsatayotgan ta'lim muassasalarida bulutli texnologiya xizmatlaridan foydalanish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

oliy ta'lim muassasalari o'quv faoliyati rivojlanishida bulutli xizmatlar ko'rsatuvchi provayderlarning tutgan o'rnini tahlil qilish;

oliy ta'lim muassasalarida bulutli texnologiyalar xizmatlarini joriy etish masalalarini o'rganish;

bulutli texnologiyalar xizmatlarini baholash tizimlarini tahlil qilish;

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali hamda Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalari universitetlari o'quv faoliyatini axborot texnologiyalar asosida tashkil qilishning joriy holatini o'rganish;

oliy ta'lim muassasalarida bulutli xizmatlarni baholash tizimini ishlab chiqish bosqichlarini tahlil qilish;

bulutli texnologiyalar xizmatlarini baholashning umumlashgan modeli va tizimini ishlab chiqish;

oliy ta'lim muassasalarida bulutli texnologiyalar xizmatlarini baholash algoritmi va joriy etish mexanizmini ishlab chiqish;

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali va Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universitetlari boshqaruv, o'quv faoliyatini va masofaviy ta'limni tashkil qilishda gibridd bulut xizmat modeli asosida IaaS xizmatini joriy etish;

oliy ta'lim muassasalarida bulutli xizmatlarni joriy etishning iqtisodiy samaradorligini tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti sifatida O'zbekistondagi oliy ta'lim muassasalari, jumladan, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali hamda Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti tanlab olingan.

Tadqiqot predmeti bo'lib oliy ta'lim muassasalari o'quv faoliyati va boshqaruvini optimal tashkil etishda bulutli texnologiyalar xizmatlarini baholash tizimini ishlab chiqish, mazkur xizmatlarni joriy qilish va ulardan samarali foydalanish bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada tizimli yondashuv, taqqoslash va guruhlashtirish, tasniflash, SWOT-tahlil, qiyosiy va tarkibiy tahlil, tanlab kuzatish, maqsadli va dasturiy yondashuvlar, umulashtirish, qayta ishlash va sintez kabi usullardan foydalanildi.

Ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko'ra "Oliy ta'lim muassasalarida bulutli texnologiyalardan foydalanish" tushunchasining iqtisodiy mazmuni universitet va institutlarda ta'lim, tadqiqot va boshqaruv jarayonlarini samarali tashkil etish maqsadida bulutli hisoblash resurslaridan foydalanishda o'quv materiallari, virtual laboratoriyalar, dasturiy

ta'minot va ma'lumotlarni saqlashda moddiy uskunalarga bog'liqlikni kamaytirish hamda ta'lim jarayonining zamonaviy va interaktiv tavsifini kuchaytirish nuqtai nazaridan takomillashtirilgan;

oliy ta'lim muassasasida bulutli texnologiyani joriy etishning ko'p mezonli umumlashgan modeli bulutli texnologiyalar xizmatlarini baholashning oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayoni ($O'J_{OTM}$), masofaviy ta'lim jarayoni (MTJ_{OTM})ni tashkil qilish, xodimlar faoliyati (XF_{OTM}), iqtisodiy afzalliklari (IA_{OTM}), bulutli xizmatlardan foydalanish xavfsizlik darajasi (FXD_{OTM}) omillari ta'siri jihatidan takomillashtirilgan;

bulutli xizmatning qiymatidan kelib chiqqan holda uni oliy ta'lim muassasasiga joriy etishning maqsadga muvofiqligini baholashda ko'rsatkichlar (mezonlar) bo'yicha afzallik shkalasi bulutli xizmatdan foydalanishning ishlash ko'rsatkichi "juda yuqori (standartdan 2 barobar yoki undan ko'proq) "ancha yuqori" (standartning 30-70% gacha), "yuqori" (standartning 10-30% gacha), "o'rtachadan yuqori" (bir oz ustunlik bilan standartga mos keladi), "o'rtacha" (standart darajada), "quyi" (kichik istisnolar bilan standartga mos keladi) darajalaridan foydalanish taklifi asoslangan;

oliy ta'lim faoliyatini tashkil etishda "O'zbektelekom" AK provayderining bulutli texnologiyalar xizmatlaridan foydalanish samaradorligini takomillashtirishning 2028-yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

oliy ta'lim muassasalarida bulutli texnologiyalardan foydalanish samaradorligini zamonaviy texnologiyalar asosida ta'minlashdagi muammolar o'rganilgan va ularni hal etish yo'llari taklif etilgan;

bulutli texnologiyalar xizmatlaridan foydalanishni baholash, qarorlar qabul qilishni qo'llab-quvvatlashning miqdoriy mezonlari ishlab chiqilgan va tizimlashtirishda qo'llanilishi taklif etilgan;

oliy ta'lim muassasalari faoliyatida bulutli texnologiya xizmat modellarini joriy etish hamda ulardan foydalanishning umumlashgan modeli, tashkiliy-iqtisodiy jihatlari ishlab chiqilgan hamda amaliyotda joriy etilgan;

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali va Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universitetlari faoliyatida gibril bulut xizmat modeli asosida infratuzilma xizmati joriy etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi dissertatsiya ishida foydalanilgan ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, berilgan ilmiy-nazariy taklif va tavsiyalarning amalda sinovdan o'tganligi, umumlashgan model asosida ishlab chiqilgan bulutli texnologiyalar xizmatlarini baholash tizimining amaliyotda joriy etilganligi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi va "O'zbektelekom" AK ning ma'lumotlari tahliliga asoslanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dissertatsiyada asoslangan nazariy, uslubiy va amaliy tavsiyalar hamda ishlanmalar oliy ta'lim muassasalari faoliyati jarayonlariga bulutli texnologiyalar xizmatlarini joriy etishda shuningdek, bulutli texnologiya xizmat modellari asosida masofaviy ta'lim jarayonini samarali tashkil etishda asosiy manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati dissertatsiya tadqiqotida olingan ilmiy natijalardan "Raqqamli O'zbekiston-2030" milliy konsepsiyasini amalga oshirish, oliy

ta'lim muassasalarida masofaviy ta'lim faoliyatini tashkil etish, axborot texnologiyalar markazi faoliyatida keng va samarali joriy etishni takomillashtirishda hamda "Bulutli texnologiyalar" fani bo'yicha keys-stadilar, ma'ruzalar matni, o'quv qo'llanmalar, uslubiy qo'llanmalar tayyorlashda manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Oliy ta'lim muassasalari faoliyatida bulutli texnologiyalardan foydalanishni tadqiq etish bo'yicha olingan natijalar asosida:

uslubiy yondashuvga ko'ra "Oliy ta'lim muassasalarida bulutli texnologiyalardan foydalanish" tushunchasining iqtisodiy mazmuni universitet va institutlarda ta'lim, tadqiqot va boshqaruv jarayonlarini samarali tashkil etish maqsadida bulutli hisoblash resurslaridan foydalanishda o'quv materiallari, virtual laboratoriyalar, dasturiy ta'minot va ma'lumotlarni saqlashda moddiy uskunalarga bog'liqlikni kamaytirish hamda ta'lim jarayonining zamonaviy va interaktiv tavsifini kuchaytirish nuqtai nazaridan takomillashtirishga oid nazariy-uslubiy ma'lumotlardan oliy o'quv yurtlari talabalari uchun tavsiya etilgan "Bulutli texnologiyalar" nomli o'quv qo'llanmani tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020-yil 14-avgustdagi 418-sonli buyrug'i). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida bulutli hisoblash resurslaridan foydalanishda o'quv materiallari, virtual laboratoriyalar, dasturiy ta'minot va ma'lumotlarni saqlashda moddiy uskunalarga bog'liqlikni kamaytirish hamda ta'lim jarayonining zamonaviy va interaktiv tavsifini kuchaytirish nuqtai nazaridan takomillashtirilgan "oliy ta'lim muassasalarida bulutli texnologiyalardan foydalanish" tushunchasining iqtisodiy mazmuni yuzasidan nazariy bilimlarni chuqurlashtirish imkoni yaratilgan;

oliy ta'lim muassasasida bulutli texnologiyani joriy etishning ko'p mezonli umumlashgan modeli bulutli texnologiyalar xizmatlarini baholashning oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayoni ($O'J_{OTM}$), masofaviy ta'lim jarayoni (MTJ_{OTM})ni tashkil qilish va xodimlar faoliyati (XF_{OTM}), iqtisodiy afzalliklari (IA_{OTM}), bulutli xizmatlardan foydalanish xavfsizlik darajasi (FXD_{OTM}) omillari ta'siri jihatidan takomillashtirish bo'yicha berilgan taklif Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti hamda Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali faoliyatini tashkil qilishda joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi raqamli ta'lim texnologiyalarni rivojlantirish markazining 2023-yil 18-oktyabrdagi 01/49-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida oliy ta'lim muassasalari faoliyatini bulutli texnologiyalar asosida tashkil qilishda asosiy manba sifatida foydalanilgan;

bulutli xizmatning qiymatidan kelib chiqqan holda uni oliy ta'lim muassasasiga joriy etishning maqsadga muvofiqligini baholashda ko'rsatkichlar (mezonlar) bo'yicha afzallik shkalasi bulutli xizmatdan foydalanishning ishlash ko'rsatkichi "juda yuqori (standartdan 2 barobar yoki undan ko'proq) "ancha yuqori" (standartning 30-70% gacha), "yuqori" (standartning 10-30% gacha), "o'rtachadan yuqori" (bir oz ustunlik bilan standartga mos keladi), "o'rtacha" (standart darajada), "quyi" (kichik istisnalar bilan standartga mos keladi) darajalaridan foydalanish taklifi Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti hamda Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali faoliyati, o'quv jarayoni, masofaviy ta'lim jarayonlarini tashkil qilishda joriy etilgan (Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar

universitetining 2023-yil 28-sentyabrdagi 6-sonli, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filialining 2023-yil 6-oktyabrdagi 11-sonli, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi raqamli ta’lim texnologiyalarni rivojlantirish markazining 2023-yil 18-oktyabrdagi 01/49-son ma’lumotnomasi) Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida mazkur qarorlar qabul qilishni qo‘llab-quvvatlashning miqdoriy mezonlari ishlab chiqish va tizimlashtirish bo‘yicha o‘quv jarayonini va masofaviy ta’lim jarayonlarini tezkor rejalashtirish, axborot xavfsizligini ta’minlash, moddiy va nomoddiy manfaatlarni aniqlashga erishilgan;

oliy ta’lim faoliyatini tashkil etishda “O‘zbektelekom” AK provayderining bulutli texnologiyalar xizmatlaridan foydalanish samaradorligini takomillashtirishning 2028-yilga qadar prognoz ko‘rsatkichlari Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali hamda “O‘zbektelekom” AK Samarqand filiali tomonidan foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi raqamli ta’lim texnologiyalarni rivojlantirish markazining 2023-yil 18-oktyabrdagi 01/49-sonli, “O‘zbektelekom” AK Samarqand filialining 2023-yil 10-oktyabrdagi 1/12-sonli, O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligining 2024-yil 24-maydagi 33-8/3474-son ma’lumotnomalari). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali faoliyatini tashkil etishda “O‘zbektelekom” AK provayderining bulutli xizmatlari asosida faoliyat samaradorligini 5-6% ga oshirish, o‘quv faoliyati tizimi xarajatlarini 6% ga tejash, Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti faoliyatini tashkil etishda “O‘zbektelekom” AK provayderining bulutli xizmatlari asosida faoliyat samaradorligini 6% ga oshirish, o‘quv faoliyati xarajatlarini 6% tejash imkoniyatlari aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiyaning asosiy ilmiy va amaliy natijalari 13 ta, jumladan 8 ta xalqaro va 5 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 19 ta ilmiy ish, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta, shundan nufuzli xorijiy jurnallarda 1 ta ilmiy maqola chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 127 betdan iborat.


DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti shakllantirilgan, ishning respublika ilm-fani va texnologiyalarning ustuvor yoʻnalishlariga mos kelishi koʻrsatib oʻtilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish haqidagi, shuningdek, nashr qilingan asarlar va dissertatsiya tarkibi boʻyicha maʼlumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Oliy taʼlim muassasalarida bulutli texnologiyalarni qoʻllashning nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida oliy taʼlim muassasalarida oʻquv faoliyati rivojlanishida bulutli xizmatlar koʻrsatuvchi provayderlarning tutgan oʻrni, oliy taʼlim muassasalarida bulutli texnologiyalar xizmatlarini joriy etish masalalari yoritib berilgan. Bulutli texnologiyalar xizmatlarini baholash tizimlari tahlili hamda ushbu tizimlarning avfzalliklari va kamchiliklari yoritib berilgan.

Oliy taʼlim muassasalarida raqamli texnologiyalarni kengroq joriy etish orqali taʼlim sifatini hamda oliy taʼlim faoliyati samaradorligini yanada oshirish mumkin. Raqamli texnologiyalarni kengroq joriy etish jarayonida internet tarmogʻiga ulanish orqali masofaviy taʼlim, onlayn taʼlim, internet resurslardan foydalanish va bir qancha qulayliklarga ega boʻlish mumkin. Raqamli texnologiyalarning ajralmas qismiga aylangan bulutli texnologiya xizmatlarini oliy taʼlim muassasalarida keng joriy qilish orqali faoliyat samaradorligini oshirish mumkin boʻladi.

Bulutli xizmatlarni bir qancha xizmat va xizmat koʻrsatish modellari mavjud boʻlib ularni oliy taʼlim muassasalarining turli faoliyatida qoʻllash mumkin boʻladi (1-rasm).



1-rasm. Oliy taʼlim muassasalarida bulutli xizmat modellaridan foydalanish sxemasi⁷.

⁷ Tadqiqotlar asosida muallif ishlanmasi.

Ta'lim muassasalarida bulutli xizmatlarni joriy etish investitsiya loyiha deb hisoblash mumkinligi sababli, bulutli xizmatlarni baholash uchun 1-jadvalda sanab o'tilgan tizimli dasturiy mahsulotlardan foydalanishi mumkin. Bunday tizimli dasturlarining xususiyatlarini ya'ni avfzalliklari va kamchiliklariga tahlil qilish talab etiladi. Oliy ta'lim muassasalarida axborot texnologiya xizmatlarini va bulutli texnologiyalar xizmatlarini joriy qilishda sarmoyalarni va xizmatlarni baholash uchun bir qancha tizimli dasturlar keng tarqalgan bo'lib, ularning solishtirish tahlili o'tkazildi va ularning xususiyatlari, avfzalliklari hamda kamchiliklari ko'rib chiqildi. Kerakli funksiyalarni amalga oshirish uchun ishlab chiqilishi talab qilingan tizim bilan taqqoslagan holda ushbu tizimlarning tahlili olib borildi (1-jadval).

1-jadval

Mavjud tizimlar hamda ishlab chiqilishi talab qilingan tizim solishtirmasi⁸.


Dasturiy ta'minot nomi Amalga oshirilgan funksiyalar	RiskWatch, Cramm,	Octave GRIF	COMFAR III Expert	Project Expert	Alt-Invest	Talab qilingan tizim
Provayder va bulut xizmatlari haqida ma'lumotlarni hisobga olish	-	-	-	-	-	+
Bulutli xizmatlarni joriy etish loyihasi samaradorligini baholash	-	-	+	+	+	+
Bulutli xizmatlarni joriy etish loyihasi xavflarini baholash	+	+	-	+	-	+
Bulutli xizmatlarni joriy etish xarajatlarini baholash	-	-	+	+	+	+
IT-illovalarni bulutli muhitga ko'chirish imkoniyatlarini baholash	-	-	-	-	-	+

Taqdim etilgan jadvalga muvofiq, ishlab chiqilishi talab qilinadigan tizim turli xil samaradorlik va xavf mezonlari, bulutga o'tish narxi asosida hisob kitoblarni amalga oshirishga imkon beradi. IT illovalarni bulutga muhitiga ko'chirish imkoniyatini baholashga imkon beradi, tizim foydalanuvchi uchun ham mutaxassis uchun ham qulay bo'lishi zarur.

Dissertatsiyaning "**Oliy ta'lim muassasalarida bulutli xizmatlarni joriy qilish bosqichlari tadqiqi**" deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot obyekti sifatida olingan oliy ta'lim muassasalarining o'quv faoliyatini axborot texnologiyalar asosida tashkil qilishning joriy holatining konseptual sxemasi tahlil qilingan. Oliy ta'lim muassasalarida bulutli xizmatlarni baholash tizimini ishlab chiqish bosqichlari tahlili hamda bulutli texnologiyalar xizmatlarini baholashning umumlashgan modeli va tizimini ishlab chiqish keltirib o'tilgan.

Tadqiqot obyekti sifatida olingan oliy ta'lim muassasalarida axborot texnologiyalar asosida joriy boshqaruv va o'quv faoliyatini tashkil qilish tizimlarining axborot texnologiyalar xizmatlariga tayangan holda 2-rasmda keltirilgan umumiy konseptual sxemasi ishlab chiqildi hamda masofaviy ta'limni tashkil etishdagi talab qilinadigan infrastruktura 2-jadvalda keltirildi.

⁸ Tadqiqotlar asosida muallif ishlanmasi



2-rasm. Tashkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali va Tashkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti faoliyatining axborot texnologiyalar asosida boshqaruv va o'quv faoliyatini tashkil qilish konseptual sxemasi⁹.

⁹ Tadqiqotlar asosida muallif ishlanmasi.

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filialida masofaviy ta'limni tashkil etishdagi joriy holati va talab qilinadigan infrastruktura¹⁰.

Ta'lim yo'nalishlari va jami auditoriya soati						Universitet MQIM joriy holat infrastrukturasini		Masofaviy ta'lim tashkil qilishda ajratilgan infrastruktura		Masofaviy ta'lim tashkil qilishda talab qilinadigan infrastruktura	
60410100- Buxgalteriya hisobi va audit (tarmoqlar bo'yicha)	4104 soat	60310100-Iqtisodiyot (Tarmoqlar va sohalar bo'yicha)	4392 soat	60412500-Marketing (Tarmoqlar va sohalar bo'yicha)	4320 soat	Serverlar soni	4 ta	Alohida server	Mavjud emas	server	1 ta
Umumiy 1-bosqich fanlar	720 soat	Umumiy 1-bosqich fanlar	936 soat	Umumiy 1-bosqich fanlar	720 soat						
Majburiy fanlar	720 soat	Majburiy fanlar	720 soat	Majburiy fanlar	720 soat						
Tanlov fanlar	0 soat	Tanlov fanlar	216 soat	Tanlov fanlar	0 soat						
Umumiy 2-bosqich fanlar	1008 soat	Umumiy 2-bosqich fanlar	1008 soat	Umumiy 2-bosqich fanlar	1080 soat	Doimiy xotira (Disk HDD)	200Tb HDD	Doimiy xotira (Disk) (HDD)	2 Tb	Doimiy xotira (Disk) (HDD)	1x50TB
Majburiy fanlar	720 soat	Majburiy fanlar	720 soat	Majburiy fanlar	720 soat						
Tanlov fanlar	288 soat	Tanlov fanlar	288 soat	Tanlov fanlar	360 soat						
Umumiy 3-bosqich fanlar	1224 soat	Umumiy 3-bosqich fanlar	1080 soat	Umumiy 3-bosqich fanlar	1080 soat	Tezkor xotira	1,5 Tb	Tezkor xotira	48 Gb	Tezkor xotira	1 Tb
Majburiy fanlar	720 soat	Majburiy fanlar	576 soat	Majburiy fanlar	576 soat						
Tanlov fanlar	504 soat	Tanlov fanlar	504 soat	Tanlov fanlar	504 soat						
Umumiy 4-bosqich fanlar	1152 soat	Umumiy 4-bosqich fanlar	1368 soat	Umumiy 4-bosqich fanlar	1440 soat	Protessor	2xXeon56 50 (6core x 400 GHz)	Alohida Protessor	Mavjud emas	Protessor	2xXeon5650 (6core x 16 GHz)
Majburiy fanlar	720 soat	Majburiy fanlar	720 soat	Majburiy fanlar	720 soat						
Tanlov fanlar	432 soat	Tanlov fanlar	648 soat	Tanlov fanlar	Tanlov fanlar						

¹⁰ Tadqiqotlar asosida muallif ishlanmasi

Ushbu konseptual sxema hamda 2-jadval asosida universitetlar o'quv faoliyati ya'ni masofaviy ta'lim va boshqaruv faoliyatini tashkil qilishda ma'lumotlarni qayta ishlash markazi, ma'lumotlar bazasi, texnik ta'minot, dasturiy maxsulot, xavfsizlikni ta'minlash, yukni balanslash, masshtablik, moslashuvchanlik va xarajatlarni kamaytirish kabi vazifalarni amalga oshirish talab qilinadi, bu vazifalarni yechishda bulutli xizmatlardan foydalanish hamda ushbu xizmatlarni baholash talab etiladi.

Bulutli texnologiyalar xizmatlarini baholash tizimini ishlab chiqish bosqichlari quyidagilardan iborat. Ma'lumotlarni yig'ish, xarajatlar va foydalarni aniqlash, bulutli xizmatlarni baholash, bulutli texnologiyalarga o'tish imkoniyatlarini tahlil qilish. Xizmatlar ekspert guruhi tomonidan baholangandan so'ng natijalar taqqoslanadi va bulutli xizmatlarni joriy etish bo'yicha qaror qabul qilinadi.

Bulutli texnologiyalar xizmatlarini qabul qilishda asosiy urg'u uchta komponentga qaratiladi bular, oliy ta'lim muassasasi tomonidan ajratilgan byudjet qiymati, texnik imkoniyatlar va axborot xavfsizligi bo'lib, har bir sohadan mutaxassislar ikki kishi, mutaxassislarning optimal soni esa 3-6 kishi bo'lishi kerak.

Mutaxassislarning fikrlari turlicha farq qilishi mumkin. Bu farq qanchalik katta bo'lishini tushunish va ekspertlar guruhining yakuniy fikrini aniqlash muhimdir. Agar bu farq unchalik katta bo'lmasa, mutaxassislarning fikrlarini o'rtacha hisoblash bizga umumiy yakuniy qiymatni olish imkonini beradi. Bunday tekshirishning bir qancha usullari mavjud. Bu ishda vaznli ekspert baholari usulidan foydalanamiz.

Ekspertlarning ma'lum soni N_1, N_2, \dots, N_i bo'lsin; ular kompetensiyani baholash bilan tavsiflanadi: Z_1, Z_2, \dots, Z_i . Ekspertlarning har biri, boshqalardan mustaqil ravishda, bulutli texnologiyalarni ko'rsatkichlar bo'yicha baholaydi: P_1, P_2, \dots, P_j . Murojaat uchun ekspertlarning baholashlari natijasida matrisasi 3-jadvalda keltirilgan ko'rsatkichlarni baholash matrisasi olinadi.

3-jadval

Ekspert baholash matrisasi¹¹.

Ekspertlar	Maqsadlar			
	P_1	P_2	...	P_j
N_1	$K_{BCS_{11}}$	$K_{BCS_{12}}$...	$K_{BCS_{1j}}$
N_2	$K_{BCS_{21}}$	$K_{BCS_{22}}$...	$K_{BCS_{2j}}$
...
N_i	$K_{BCS_{i1}}$	$K_{BCS_{i2}}$...	$K_{BCS_{ij}}$

Guruhni baholash W -ifodaga asoslanadi:

$$W = \sum K_{BCS_{ij}} * Z_i \quad (1)$$

Bu yerda $K_{BCS_{ij}}$ – ko'rsatkich bo'yicha arizaning ekspert baholashi, W – ekspertlar guruhini baholash, Z_i - nisbiy kompetentlik koeffisienti. Bunda Z_i – quyidagi ifoda bilan aniqlanadi:

$$Z_i = \frac{R_i}{\sum R_i}, \quad i = 1, m \quad (2)$$

¹¹ Tadqiqotlar asosida muallif ishlanmasi

Bu yerda R_i ekspert komissiyasining vakolati bo'lib, ilmiy unvoni, ilmiy darajasi, egallagan lavozimi, o'rganilayotgan sohada ish tajribasi, fan va texnikaning eng so'nggi yutuqlarini bilishi, ilmiy nashrlar soni, pedagogik sohasidagi muammolarni, texnika va texnologiyalarni rivojlantirish istiqbollarini tushunish bilan aniqlanadi. Bunda R_u va R_a quyidagi ifoda bilan aniqlanadi:

$$R_i = (10 * R_u + R_a) / 2 \quad (3)$$

Bu yerda R_u va R_a - mutaxassisning bulutli xizmatlarini tanlash muammosi bo'yicha bilim va ko'nikmalarini tavsiflovchi koeffisientlar. Bunda ifodadagi R_u ekspertning sohada hal qilinayotgan muammo yuzasidan o'z-o'zini baholashi asosida aniqlanadi, R_u uchun quyida keltirilgan ko'rsatkichlar ishlab chiqildi:

$R_u=0$, ekspert tekshirilayotgan muammoni umuman bilmaydi;

$R_u=1/3$, ekspert muammo bilan tanish, lekin qiziqishlari doirasiga kiritmagan;

$R_u=4/6$, ekspert muammo bilan tanish, ammo uni hal qilishda ishtirok etmaydi;

$R_u=7/9$, ekspert muammo bilan tanish, uni hal qilishda bevosita ishtirok etadi;

$R_u=1$ -mutaxassis yaxshi biladi va muammoni hal qila oladi.

3-formuladagi R_a esa quyidagi 4-jadvalga muvofiq ekspertning javoblariga muvofiq ballarni yig'ish orqali aniqlanadi.

Bundan tashqari, ekspert xulosalarining izchilligini aniqlash talab etiladi. Bunday mustahkamlik mezonini ekspert baholarining o'zgarish ko'rsatkichi bo'lib xizmat qilishi mumkin.

4-jadval

Ekspert baholash matrisasi qiymatlari¹².

Baholash mezonlari (asoslilik)	Baholash shkalasi		
	yuqori	o'rta	past
Baholash mezonlari (asoslilik)	2	1	0
OTM da ish faoliyati hamda IT ni bilish tajribasi	3	2	1
Mavzu sohasini bilish	3	2	2
Xorijiy tajribalarni tahlil qilish hamda holati bilan shaxsiy tanishish	1	0,5	0
Intuitivlik va ijodiy muammolarni hal qilish qobiliyati	1	0,5	0

Bulutli texnologiyalar xizmatlarini joriy etish va ularni baholashning umumlashgan modeli asosida boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonini tashkil etish, ularning iqtisodiy samaradorligi va xavfsizligini baholash natijalariga asoslangan bo'lishi kerak. Bulutli texnologiyalarni joriy etishni strategik rejalashtirishda qaror qabul qilish deyarli har doim ma'lumotlarning noaniqligi sharoitida amalga oshiriladi. Bunday sharoitda ekspert sifatli baho beradi. Qaror qabul qilishda nafaqat sifat, balki miqdoriy mezonlarni ham hisobga olish muhim. Miqdoriy baholash bosh qaror qabul qiluvchi (QQQ) uchun aniq va tushunarli bo'ladi. Bulutli texnologiyalar xizmatlarini baholashning 6 ta guruh mezonlarini baholashga asoslangan usuli ishlab chiqildi.

Bulutli texnologiyalar xizmatlarini baholashning umumlashgan modeli ishlab chiqilgan K_{BCS} – ifodasi orqali aniqlanadi hamda 5-jadvalda keltirib o'tilgan 6 ta miqdoriy mezonlarga asoslanadi.

¹² Tadqiqotlar asosida muallif ishlanmasi

Bulutli xizmatlarni baholashning umumlashgan modeli¹³.

No	Mezonlarning nomi	Formula	Izoh
1	Bulutli texnologiyalar xizmatlarini baholashning umumlashgan modeli	$K_{\text{eclz}} = L_4 * \sum_1^5 (a_i * L_i)$	Bu yerda <i>Kecs</i> – “Bulutli xizmatning” umumlashgan ko‘rsatkichi (Bulutli xizmatlarning samaradorligi), <i>L</i> ₁ – “xodimlar faoliyat olib borish samaradorligi” mezonining qiymati (<i>XFO_{TM}</i>), <i>L</i> ₂ – “iqtisodiy afzalliklar” mezonining qiymati (<i>IA_{OTM}</i>), <i>L</i> ₃ – “texnik ustuvorlik” mezonining qiymati, <i>L</i> ₄ – “faoliyatning ishonchliligi va axborot xavfsizligi” mezonining qiymati, <i>L</i> ₅ – “xavfsizlik darajasi” mezonining qiymati (<i>FXD_{OTM}</i>), <i>L</i> ₆ – “psixologik omil” mezonining qiymati, <i>a</i> ₁ , <i>a</i> ₂ , <i>a</i> ₃ , <i>a</i> ₄ , <i>a</i> ₅ - <i>L</i> _i – “ko‘rsatkich” qiymati mezonlarning tortish koeffitsientlari.
2	Xodimlar faoliyat olib borish samaradorlik (<i>XFO_{TM}</i>)	$L_1 = a_{11} * T_o + a_{12} * F_{\text{ish}} + a_{13} * R_{fo} + a_{14} * F_{\text{tan}}$	Bu yerda <i>T</i> _o – “tezlikni oshirish” ko‘rsatkichining ballari, <i>F</i> _{ish} – “foydalanuvchi ishlashi” ko‘rsatkichining ballari, <i>R</i> _{fo} – “resurslardan foydalanishni optimallashtirish” ko‘rsatkichi ballari, <i>F</i> _{tan} – “faoliyat uchun tanqidiylik” ko‘rsatkichining ballari, <i>a</i> ₁₁ , <i>a</i> ₁₂ , <i>a</i> ₁₃ , <i>a</i> ₁₄ – <i>L</i> ₁ mezon ko‘rsatkichlarining og‘irlik koeffitsientlari.
3	Iqtisodiy afzalliklar (<i>IA_{OTM}</i>)	$L_2 = \frac{T_{\text{ej}}}{X_s}$	Bu yerda <i>L</i> ₂ – “iqtisodiy afzalliklari” (<i>IA_{OTM}</i>) mezon, <i>X</i> _s – “bulutli xizmatlar narxi” ko‘rsatkichining qiymati pul ekvivalenti, <i>T</i> _{ej} – “Xarajatlarni tejash” ko‘rsatkichining pul ko‘rinishidagi qiymati.
4	Texnik ustuvorlik	$L_3 = a_{21} * I_k + a_{22} * D_{\text{bkg}} + a_{23} * T_t + a_{24} * D_{\text{loy}}$	Bu yerda: <i>L</i> ₃ - “texnik ustuvorlik” mezon, <i>I</i> _k – “integratsiya” ko‘rsatkichining balli, <i>D</i> _{bkg} – “ilovalarni bulutga ko‘chirish qobiliyati” ko‘rsatkichining ballari, <i>T</i> _t – “texnologiya to‘plami” ko‘rsatkichi balli, <i>D</i> _{loy} – “dasturlarni loyihalash” ko‘rsatkichining ballari, <i>a</i> ₂₁ , <i>a</i> ₂₂ , <i>a</i> ₂₃ , <i>a</i> ₂₄ – <i>L</i> ₃ mezon ko‘rsatkichlarining og‘irlik koeffitsientlari.
5	Faoliyatning ishonchliligi va axborot xavfsizligi	$L_4 = \sqrt[5]{S_{\text{mxk}} * M_{\text{uzpxk}} * A_k * F_{\text{ik}} * I_{\text{vr}}}$	Bu yerda <i>S</i> _{mxk} – saqlangan ma‘lumotlar xavfsizligi ko‘rsatkichining ballari, <i>M</i> _{uzpxk} – uzatish paytida ma‘lumotlarni himoya qilish ko‘rsatkichining ballari, <i>A</i> _k – autentifikatsiya ko‘rsatkichi ballari, <i>F</i> _{ik} – foydalanuvchi izolyatsiya ko‘rsatkich ball, <i>I</i> _{vr} – uzluksiz ishlash va mavjudlik.
6	Bulutli xizmatdan fodalaniish xavfsizlik darajasi. (<i>FXD_{OTM}</i>)	$L_5 = a_{31} * H_{\text{nmk}} + a_{32} * H_{\text{jb}} + a_{33} * N_i + a_{34} * M_{\text{mk}} + a_{35} * T_{\text{sofk}}$	Bu yerda <i>H</i> _{nmk} – normativ, me‘yoriy-huquqiy masalalar ko‘rsatkichi bali, <i>H</i> _{jb} – hodisaga javob berish reytingi (xizmat ko‘rsatuvchi majburiyati), <i>N</i> _i – nomuvofiqlik indeksi bali, <i>M</i> _{mk} – maxfiylik va ma‘lumotlarni tiklash ko‘rsatkichining ballari, <i>T</i> _{sofk} – to‘lash sxemasi bo‘yicha ortiqcha to‘lov ko‘rsatkichi balli, <i>a</i> ₃₁ , <i>a</i> ₃₂ , <i>a</i> ₃₃ , <i>a</i> ₃₄ , <i>a</i> ₃₅ – <i>L</i> ₅ mezon ko‘rsatkichlarini tortish koeffitsientlari.
7	Psixologik omil	$L_6 = a_{41} * X_{\text{qk}} + a_{42} * I_{\text{tk}} + a_{43} * Q_{\text{aik}} + a_{44} * M_k$	Bu yerda <i>X</i> _{qk} – xodimlarning faoliyatdan qoniqish ko‘rsatkichi, <i>I</i> _{tk} – innovatsiyaga tayyorlik ko‘rsatkichi, <i>Q</i> _{aik} – aqliy va intellektual qobiliyatlar ko‘rsatkichi, <i>M</i> _k – motivatsiya ko‘rsatkichi, <i>a</i> ₄₁ , <i>a</i> ₄₂ , <i>a</i> ₄₃ , <i>a</i> ₄₄ , <i>a</i> ₄₅ – <i>L</i> ₆ kriteriyasi mezon ko‘rsatkichlarining yuklama koeffitsientlari

¹³ Tadqiqot asosida muallif ishlanmasi

Umumlashgan model asosida bulutli xizmatning ko'rsatkichlari qiymati hisoblangandan so'ng, xizmatni oliy ta'lim muassasasiga joriy etish bo'yicha qaror chiqariladi (6-jadval).

6-jadval

Ko'rsatkichlar (mezonlar) bo'yicha baholash shkalasi¹⁴.

Ko'rsatkich qiymati	Bulutli xizmat ko'rsatish ko'rsatkichining qiymati
1	Bulutli xizmatdan foydalanishning ishlash ko'rsatkichi juda yuqori (standartdan 2 baravar yoki undan ko'proq)
0,9	Ishlash ko'rsatkichi ancha yuqori (standartdan 50-70% gacha)
0,8	Ishlash ko'rsatkichi ancha yuqori (standartdan 30-50% gacha)
0,7	Ishlash ko'rsatkichi yuqori ko'rinadi (standartdan 10-30% gacha)
0,6	O'rtacha yuqorida (bir oz ustunlik bilan standarti mos keladi)
0,5	Ishlash ko'rsatkichining o'rtacha darajasi (standart darajada)
0,4	Biroz o'rtacha quyida (kichik istisnolar bilan standarti mos keladi)
0,3	Ishlash ko'rsatkichi past ko'rinadi (standartdan 10-30% ga orqada qolish)
0,2	Ishlash ko'rsatkichi ancha past (standartdan 30-50% ga kechikish)
0,1	Ishlash ko'rsatkichi ancha past (standartdan 50-70% ga orqada qolish)
0	Ishlash ko'rsatkichi juda past (standartdan ko'rsatkichdan 70-100%)


Ekspert guruhining bergan ballari ekspertlarning kompetentligi asosida koefitsentga o'tkaziladi va tegishli qiymatlar aniqlanadi. Ekspert guruhining ballari uchun tegishli so'rovnoma tashkil etiladi, ushbu so'rovnomaning shakllantirish va tegishli ma'lumotlarni yig'ish avtomatik amalga oshiriladi, ammo tizim administratori tomonidan nazorat qilinadi. Qayd etilgan ma'lumotlar asosida bulutli xizmatlar dastlabki saralashdan o'tkaziladi so'ngra ekspertlarga taqdim etiladi.

